

O‘SMIRLIK VA OTA-ONA MUNOSABATLARI: O‘ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTI QAHRAMONLARI MISOLIDA (MARKUS ZUSAKNING “THE BOOK THIEF” VA ERKIN VOHIDOV ASARLARI ORQALI)

Kasimova Yulduz Malikovna

Namangan davlat pedagogika instituti

Xorijiy tillar kafedrası katta o‘qituvchisi

kasimovayulduz1977@gmail.com, +998998170868

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz yozuvchisi Markus Zusakning “The Book Thief” (Kitob o‘g‘risi) romani va o‘zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidovning asarlari asosida o‘smirlar va ota-onalar o‘rtasidagi murakkab, ammo muhim munosabatlar tahlil qilinadi. Asarlarda o‘smir qahramonlarning ichki dunyosi, ularning ota-ona mehriga bo‘lgan ehtiyoji, oilaviy muhitning ruhiy kamolotga ta’siri badiiy obrazlar orqali yoritilgan. Shuningdek, maqolada ikki adabiyotda o‘smirlarning jamiyatdagi o‘rni, tarbiyadagi farqlar, oilaviy qadriyatlar va muhitning yosh avlod shakllanishidagi o‘rni qiyosiy tahlil etiladi. O‘zbek va ingliz adabiyotidagi qahramonlar misolida o‘smirlik davrining hissiy va ijtimoiy jihatlari o‘zaro solishtirilib, adabiyot orqali o‘smirlar tarbiyasida ota-ona ishtirokining badiiy talqini yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik, ota-ona munosabatlari, oilaviy muhit, adabiy obraz, ruhiy kamolot, qiyosiy tahlil, Markus Zusak, Erkin Vohidov, “The Book Thief”, o‘zbek va ingliz adabiyoti.

Аннотация. В статье анализируются сложные, но важные взаимоотношения подростков и родителей на примере романа английского писателя Маркуса Зусака «Книжный вор книг» и произведений одного из выдающихся представителей узбекской литературы Эркина Вохидова. В произведениях раскрывается внутренний мир подростков, их потребность в родительской любви и влияние семейной среды на духовную зрелость через художественные образы. В статье также проводится сравнительный анализ роли подростков в обществе, различий в воспитании, семейных ценностях и среде в формировании подрастающего поколения в двух литературах. На

примере образов узбекской и английской литературы сопоставляются эмоциональные и социальные аспекты подросткового возраста, а также освещается художественная интерпретация родительского участия в воспитании подростков через литературу.

Ключевые слова: Подростковый возраст, родительские отношения, семейная среда, литературный образ, духовная зрелость, сравнительный анализ, Маркус Зусак, Эркин Вохидов, «Книжный вор», узбекская и английская литература.

Abstract. The article analyzes the complex but important relationship between teenagers and parents using the example of the novel "The Book Thief" by English writer Marcus Zusak and the works of one of the outstanding representatives of Uzbek literature, Erkin Vohidov. The works reveal the inner world of teenage heroes, their need for parental love and the influence of the family environment on spiritual maturity through artistic images. The article also provides a comparative analysis of the role of adolescents in society, differences in upbringing, family values and environment in the formation of the younger generation in the two literatures. Using the example of the heroes of Uzbek and English literature, the emotional and social aspects of adolescence are compared, as well as the artistic interpretation of parental involvement in the upbringing of adolescents through literature is highlighted.

Keywords: Adolescence, parental relationships, family environment, literary image, spiritual maturity, comparative analysis, Markus Zusak, Erkin Vohidov, "The Book Thief," Uzbek and English literature.

Kirish

O'smirlik — inson hayotidagi eng murakkab, ayni paytda eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsiyat shakllanadi, o'z-o'zini anglash hissi, mustaqil fikrlash va hayotga munosabat paydo bo'ladi, ichki dunyo boyiydi. O'smirlik yoshi yosh avlodning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy kamolotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan davr bo'lib, bu jarayonda ota-ona bilan bo'lgan munosabat o'smirning dunyoqarashi, o'zini anglashi va jamiyatdagi tutgan o'rniga bevosita

ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'smir va ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mavzusi nafaqat pedagogika, psixologiya yoki boshqa fanlar, balki adabiyotda ham o'ziga yarasha dolzarb masala sifatida qaraladi.

Adabiyot — inson ruhiyatining eng nozik qatlamlarini ochib beruvchi san'at turi sifatida o'smirlik davridagi kechinmalar, qarama-qarshiliklar, kelishmovchilik, ziddiyatlar, iztirob va orzularni tasvirlash orqali ota-ona va farzandlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur yoritib beradi. Dunyo adabiyotida bu mavzuni yoritgan ko'plab mualliflar mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos milliy va madaniy qarashlar doirasida bu masalaga yondashgan.

Mazkur maqolada ingliz yozuvchisi Markus Zusakning "The Book Thief" (Kitob o'g'risi) [1] romani hamda o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidovning she'riy va nasriy asarlari asosida o'smir va ota-ona o'rtasidagi munosabatlarning badiiy talqini tahlil qilinadi.[2] Ushbu ikki adib asarlarida tasvirlangan o'smir qahramonlar taqdiri, ularning oilaviy muhitdagi kechinmalari, mehr-e'tibor va tushunishga bo'lgan ehtiyoji qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz adabiyotida o'smirlik muammolariga bo'lgan yondashuv, oilaviy qadriyatlar va tarbiyaviy yondashuvlarning o'xshash hamda farqli jihatlari ochib beriladi.

Adabiyotlar tahlili

O'smirlik davri psixologiyasi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar (Bronfenbrenner [3], James, H. [4] va boshqalar) ushbu davrni shaxs shakllanishining murakkab bosqichi sifatida tasvirlaydilar. Oila psixologiyasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar (Minuchin, Bowlby, Ainsworth) ota-ona ko'magi, mehr-muhabbat, nazorat va ishonchi o'smirning hissiy barqarorligiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi. Bu ilmiy qarashlar adabiyotda yaratilgan o'smir obrazi va uning oilaviy munosabatlari tahliliga uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz adabiyotshunosligida o'smirlik masalasi, ayniqsa XX–XXI asr adabiyotida keng yoritilgan. M. Zusakning "The Book Thief" asari ham shu yo'nalishda o'rganilgan bo'lib, tadqiqotchilar (S. Parsons, K. Miller, H. G. Leister)

asarda urush davri bolasi, qiyin paytda oilaga muhtoj bo'lgan va o'ziga oila topgan insonning ruhiy tajribalariga e'tibor qaratadi.

Ko'p tadqiqotlarda Gans va Roza Hubermannlarning Lizel Memingerga nisbatan "farzandlik munosabatini tiklovchi" ota-ona namunasi sifatidagi o'rni ta'kidlanadi. Gansning mehribonligi va Rozaning qattiqqo'lligi o'smirlik davrida zarur bo'lgan ikki asosiy tarbiya vositasi — mehr va intizom — uyg'unligini ko'rsatadi.

Shuningdek, asar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar Lizelning psixologik o'sishi ham oila muhitida, ham urushning og'ir sharoitlarida shakllanishini qayd etadi.

O'zbek adabiyotshunosligida Erkin Vohidov ijodi keng tadqiq etilgan (G'aniyeva, N. [5], Akbarov, Z [6]). Ularning ishlarida shoir asarlaridagi oila, tarbiya, milliy qadriyatlar va avlodlar o'rtasidagi ruhiy yaqinlik alohida urg'u bilan yoritilgan.

Erkin Vohidovning "O'smir", "Ota va bola", "Nido", "Ruhlar isyoni" kabi she'r va dostonlarida ota-ona mehrining o'smirlikka ta'siri, avlodlar uzviyligi, tarbiya jarayonidagi ruhiy kechinmalar tasvirlangan. Tadqiqotchilar shoirning o'smir obrazini milliy urf-odat, axloqiy qadriyatlar va oilaviy mehr bilan bog'lab tasvirlashini ta'kidlaydilar.

Shuningdek, Vohidov asarlarining ko'pchiligida ota-ona-farzand munosabati "ma'suliyat", "mehr", "nasihat", "halollik", "tushunish" kabi ma'naviy kategoriyalar orqali talqin qilinadi. Bu esa asarlarni o'zbek oilaviy tarbiyasining badiiy ko'rinishi sifatida baholash imkonini beradi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik bo'yicha tadqiqotlarda (Nuraliyeva M. [7], Saidov S. [8], Sharipova S. [9] N) badiiy obrazlarni turli madaniyatlarda solishtirish o'smirlik ruhiyatining universal va milliy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilishi aytiladi.

XX–XXI asr ingliz va o'zbek adabiyotlarini qiyoslagan bir qancha ishlar mavjud bo'lsada, Zusak va Vohidov ijodida o'smirlik va ota-ona munosabatlari masalasini bevosita solishtirgan alohida izlanishlar juda kam. Shu sababli mavzu

ilmiy yangilik kasb etadi. Mavjud tadqiqotlar odatda quyidagi umumiy jihatlarni ko'rsatadi:

- urush, ijtimoiy o'zgarish yoki jamiyat bosimi o'smir ruhiyatiga kuchli ta'sir qiladi;
- oila g'oyaviy va ma'naviy tayanch sifatida tasvirlanadi;
- ota-onaga bog'liqlik va mustaqillikka intilish o'smir obrazining asosiy dramatik kuchidir;
- adabiyot o'smirlik davridagi "ichki nutq", qo'rquv, orzu va o'zlik izlash jarayonini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Adabiyot tahlili shuni ko'rsatadiki, *The Book Thief* bo'yicha tadqiqotlar ko'p, lekin asarda o'zlashtirilgan "turmush oila namunasi" (Foster oilasi)ning o'smir psixologiyasiga ta'siri to'liq o'rganilmagan.

Erkin Vohidovning o'smirlikni badiiy talqin etish tizimi bo'yicha ilmiy ishlarda ko'proq umumiy she'riy tahlil mavjud, ammo o'smirning ichki kechinmalari va ota-ona bilan munosabatlar qiyosiy psixologik nuqtai nazardan yetarlicha yoritilmagan.

Eng muhimi, Zusak va Vohidov ijodida o'smir-ota-ona munosabatlari qiyosiy adabiyotshunoslik va oila psixologiyasi yondashuvlarini birlashtirgan holda alohida ilmiy tadqiqot sifatida hali ko'rib chiqilmagan. Shu sababli ushbu maqola ikki adabiy an'anada yaratilgan o'smir obrazining ota-ona bilan munosabatlari orqali o'zlikni topish jarayonini tahlil qilish orqali mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur ishda adabiy matnlarni chuqur o'rganish, tahlil qilish va qiyoslash asosida qiyosiy-tahliliy, psixologik, badiiy-falsafiy va tematik tahlil usullaridan foydalanildi.

Birinchidan, qiyosiy-tahliliy metod orqali ingliz adibi Markus Zusakning "The Book Thief" (Kitob o'g'risi) romani va o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidovning asarlarida o'smirlar va ularning ota-onalari o'rtasidagi munosabatlar qiyosiy jihatdan solishtirildi.

Ikkinchidan, psixologik yondashuv asosida o'smir obrazlarining ichki kechinmalari, ota-ona mehri, yordami, qo'llab quvvatlashi, muhabbatiga bo'lgan ehtiyojlari, emotsional bog'liqlik darajasi tahlil qilindi. Har ikki adib tomonidan yaratilgan obrazlarda o'smirlikka xos psixologik holatlar aniqlanib, ular orqali ota-ona bilan munosabatlar qanday ifodalangani o'rganildi.

Uchinchidan, badiiy-falsafiy tahlil asosida asarlarda aks etgan oilaviy qadriyatlar, insoniylik, mehr-oqibat, muruvvati, bag'rikenglik, sabr-toqat kabi tushunchalarning badiiy ifodasi yoritildi.

Shuningdek, tematik tahlil orqali adiblar tomonidan yoritilgan asosiy g'oya – o'smirlik davridagi ta'lim-tarbiya, ota-onaning beparvo, hissiy ta'siri va oila muhiti bilan bog'liq holatlar ajratib ko'rsatildi.

Tadqiqot davomida asarlar matni, ularning konteksti, davri va mualliflarning hayotiy qarashlari ham hisobga olindi.

Natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

1. O'smirlar va ota-ona munosabatlarning umumiy jihatlari

Markus Zusak va Erkin Vohidov asarlarida o'smir obrazlari ota-onaning mehriga, e'tiboriga va hissiy qo'llab-quvvatlashiga muhtoj shaxs sifatida tasvirlangan.

Har ikki adib o'smirlik davrini insonning eng nozik va shakllanuvchi bosqichi sifatida ko'rsatgan, bu davrda ota-onaning roli, qo'llab quvvatlashi va o'smirlarni tushunishi muhim pedagogik va axloqiy ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Ota-ona va farzand o'rtasidagi ishonch, samimiylik va muloqot asarlarda tarbiyaviy ideal sifatida ilgari surilgan.

2. Milliy va madaniy farqlarning ifodasi

“The Book Thief” romanida urush yillaridagi murakkab ijtimoiy va siyosiy sharoit o'smir qahramon (Lizel) va asrab olgan ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarga keskin ta'sir ko'rsatadi. Urushning og'ir sharoitlariga qaramay, o'zaro ishonch va mehr bilan barpo etilgan munosabatlar orqali qahramon ma'naviy jihatdan ulg'ayadi.

Erkin Vohidov asarlarida esa o'smir va ota-ona munosabatlari ko'proq an'anaviy qadriyatlar, milliy tarbiya uslublari va axloqiy me'yorlar doirasida tasvirlanadi. Ota-onaning farzand oldidagi mas'uliyati, oila muhitining pokligi va mehr-muhabbati markazga olinadi.

O'zbek adabiyotida ota-onaga mehr, itoat, hurmat, izzat duoga sazovor bo'lish kabi ma'naviy qadriyatlar kuchli aks etgan bo'lsa, ingliz adabiyotida shaxsiy tanlov, mustaqil fikr va erkin o'sish imkoniyatlari ko'proq ilgari surilgan.

3. Adabiy obrazlar orqali tarbiyaviy g'oyalar

Gans Hubermann (Zusak asarida) — mehribon, sabrli, o'z farzandiga bo'lgan muhabbati bilan u bilan emotsional rishta o'rnatgan ota obrazidir. Bu obraz orqali muallif o'smirlik davrida ota-onaning mehr va sabr-toqati qanday ma'naviy tayanch va dalda bo'lishini ko'rsatadi.

Erkin Vohidovning "Ona yurak" she'ri va shuningdek, boshqa asarlarida ona siymosi orqali mehr, fidoyilik va farzand tarbiyasidagi muqaddaslik g'oyasi ilgari suriladi. Unda ota-ona shunchaki biografik shaxs emas, balki ma'naviy tayanch va axloqiy namuna hisoblanadi.

4. Tarbiyaning zamonaviy ahamiyati

Har ikkala adib asarlari hozirgi zamon uchun ham dolzarb bo'lib, yosh avlod tarbiyasida ota-onaning hissiy ishtiroki, muloqot va ishonch muhitini yaratish muhimligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Asarlardagi badiiy tajriba bugungi pedagoglar, ota-onalar va yoshlar uchun ibrat manbai bo'la oladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'smirlik — inson hayotining murakkab va mas'uliyatli bosqichi bo'lib, bu davrda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar shaxsning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ushbu maqolada ingliz yozuvchisi Markus Zusakning "The Book Thief" romani va o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Erkin Vohidov asarlarida o'smir qahramonlar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlarning badiiy talqini qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, har ikki adib o'smirlik davrini faqatgina biologik o'sish emas, balki ruhiy, axloqiy va ijtimoiy shakllanish jarayoni sifatida talqin etadi. Zusak asarida urush yillarida o'z ruhiy muvozanatini yo'qotmagan, mehribon ota siymosi orqali o'smir qizning shakllanishi tasvirlansa, Erkin Vohidov asarlarida esa ota-ona siymosi an'anaviy qadriyatlar, e'tiqod va mehr-oqibat bilan uyg'unlashgan holda tasvirlanadi.

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanganki, har ikki adabiy maktabda o'smir va ota-ona munosabatlari badiiy obrazlar, til va uslub vositalari orqali chuqur yoritilgan. Asarlar zamonaviy yoshlar uchun ham muhim bo'lib, oilaviy tarbiyaning asosiy ustunlari — ishonch, mehr, tushunish va muloqotga asoslanishi kerakligini eslatadi.

Shuningdek, o'zbek va ingliz adabiyotidagi bu kabi badiiy tajribalar yosh avlod tarbiyasi, ota-onalarning ma'naviy mas'uliyati, oila muhitining inson kamolotidagi o'rni haqida chuqur o'ylashga undaydi. O'smirlik davrining badiiy ifodasi orqali adiblar oilaning, ayniqsa, ota-onaning tarbiyadagi rolini chuqur tahlil qilib, bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolayotgan muhim ijtimoiy va axloqiy muammolarni yoritib berganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Zusak. The Book Thief. – New York: Alfred A. Knopf, 2005. – 552 b
2. E. Vohidov. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006.
3. U. Bronfenbrenner. The Ecology of Human Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. – 330 p.
4. H. James. Child Development and the Role of Family. – London: Routledge, 1995. – 214 p.
5. N. G'aniyeva. O'zbek adabiyotshunosligi muammolari. – Toshkent: Fan, 2014. – 240 b.
6. Z. Akbarov. Adabiy obraz va zamonaviy tahlil metodlari. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 198 b.

7. M. Nuraliyeva. Oila va tarbiya: psixologik yondashuvlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013. – 152 b.
8. S. Saidov. O‘zbek adabiyotida bolalar obrazi. – Toshkent: Fan, 2001. – 135 b.
9. N. Sharipova, N. Ota-ona va o‘smir o‘rtasidagi munosabatlar adabiyotda. // “Filologiya masalalari”, 2020, №3. – B. 45–50.